

**Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul, kirish imtihonlari yakuni**

**PRESS-RELIZ**

Joriy yilning 17-avgust kuni Agentlik tizimida yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul va kirish imtihonlari yakuni yuzasidan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda Prezident ta'lim muassasalari agentligi va Xalq ta'limi vazirligi mas'ullari ishtirok etishdi.

Yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga 2022/2023-o'quv yili uchun hujjatlar qabuli **1-iyundan – 30-iyunga qadar** onlayn shaklda ariza.piima.uz sayti orqali amalga oshirildi. Ushbu maktablarda o'qish istagida 300 mingdan ortiq o'quvchilar hujjat topshirishgan.

**Ixtisoslashtirilgan maktablarga nechanchi sinfdan qabul qilinadi?**

2022-2023-o'quv yilida Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimiga o'tkazilgan 168 ta ixtisoslashtirilgan maktablarning:

- aniq fanlar yo'nalishiga 5-11-sinflarga
- tabiiy fanlar yo'nalishiga 7-11-sinflarga qabul bo'lib o'tdi.

**Mazkur maktablar va maktab internatlarga sinflar kesimida quyidagi fanlardan imtihonlar bo'lib o'tadi:**

**ANIQ FANLAR YO'NALISHI BO'YICHA:** 5- va 6-sinflar uchun matematika, ingliz tili fanlaridan:

matematika fanidan 25 ta, shundan 5 tasi mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollardan iborat bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 77.5 ball beriladi.

Ingliz tili fanidan 15 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 2,1 baldan jami 31,5 ball beriladi.

Matematika va ingliz tili fanlaridan jami maksimal 109 ball beriladi.

**7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflar uchun matematika, fizika, ingliz tili fanlaridan imtihonlar o'tkazildi:**

matematika fanidan 20 ta, shundan 5 tasi mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollardan iborat bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 62 ball.

Fizika fanidan 10 ta savoldan iborat bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 31 ball.

Ingliz tili fanidan 10 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 1,1 baldan jami 11 ball.

Matematika, fizika va ingliz tili fanlaridan jami maksimal 104 ball beriladi.

**TABIY FANLAR YO'NALISHI BO'YICHA:** 7-sinflar uchun biologiya, ingliz tili fanlaridan: Biologiya fanidan 25 ta, shundan 5 tasi mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollardan iborat bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 77,5 ball beriladi.

Ingliz tili fanidan 15 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 2,1 baldan jami 31,5 ball beriladi.

Biologiya va ingliz tili fanlaridan jami maksimal –109 ball.

8-, 9-, 10-, 11-sinflar uchun biologiya, kimyo, ingliz tili fanlaridan:

Biologiya fanidan 15 ta, undan 5 tasi mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollardan iborat bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 46,5 ball.

Kimyo fanidan 15 ta savol. Har bir to'g'ri javob uchun 3,1 baldan jami 46,5 ball.

Ingliz tili fanidan 10 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 1,1 baldan jami 11 ball.

Biologiya, kimyo va ingliz tili fanlaridan jami maksimal – 104 bal beriladi.

Yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga o'qishga hujjat topshirgan o'quvchilarga imtiyoz Prezident ta'lim muassasalari agentligi tomonidan tasdiqlangan Xalqaro, mintaqaviy va asosiy fan olimpiadalarining matematika, fizika, kimyo, biologiya, hamda informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan viloyat bosqichida 1-2-3 o'rinni egallagan 9-10-11 sinf o'quvchilariga tatbiq etiladi.

Eslatib o'tamiz, imtihonlar joriy yilning 3-iyuldan 8 iyulga qadar (shu kuni ham) davom etdi. Imtihonlar 3 smenada - 08:00, 13:00 va 18:00 bo'lib o'tdi. Qoraqalpog'istondagi imtihonlar 26 iyuldan 30 iyulga qadar davom etdi. Imtihonlarda ishtirok eta olmagan o'quvchi yoshlar uchun 7 avgust kuni ham imtihonlar tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, 2022 yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon asosida 193 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida tashkil etiladi. Shundan 168 tasi 2022-2023 o'quv yilida o'z faoliyatini boshlamoqda. Mazkur maktablardan 23 tasi maktab internatlari bo'lib, ularda yotoqxona ham mavjud. Qolgan 145 ta ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilar uyidan qatnab o'qishlari uchun mo'ljallangan.